

MADANIY INTELLEKTUAL SHAXS HAMID OLIMJON

Рузметов Темурабек Улуғбекович
Ўзбекистон давлат консерваторияси

Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q,
Yov qo'liga taslim ham bo'lganim yo'q.
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman!

Hamid Olimjon

Yurtimiz tarixida o'zining buyuk aqliy salohiyati, keng qamrovli, chuqur ijodkorlar yokida intellectual ijod namunalari orqali tanilgan, ziyoliylar juda ko'plab topiladi. Musiqa ilmida Farobiydan, Fitratgacha degan musiqiy risolalar yozgan shaxslar doirasi mavjud va ular doim, xar qanday tarixiy jarayonlarda esga olinadi. Xa bu bizning yuksak millat ekanligimizdan dalolat beradi. Shunga o'xshash shaxslar hayotini, tariximizning xar bir asrida o'nlab uchratish mumkin. Aynan XX asrda, xsusan adabiyot va san'at sohalarida, unday shaxslarning soni yuzlab topiladi. Quyida shunday buyuk inson haqida so'zlaymiz. Xalqimizning atoqli shoiri, adabiy tanqidchi, mohir dramaturg va tarjimon Hamid Olimjon XX asr o'zbek mumtoz she'riyatining yorqin namoyondasidir. Bu serqirra ijodkor haqida ko'p va xo'p gapirish mumkin. Hamid Olimjon o'zining qisqa (1909-1944), lekin mazmunli umri davomida o'zbek she'riyati, adabiyotida hamda musiqiy hayotida o'chmas iz qoldirdi.

XX asr boshlarida O'zbekiston milliy madaniyatiga o'ziga xos o'zgarishlar, yangi islohotlar, ilmiy yangiliklar oqimi kirib kela boshladi. Va o'sha zamonning ziyoli qatlamlari buni ochiqko'nillik bilan qarshi oldilar. Xsusan o'sha davrning zamonaviy o'quv dargohlari birin ketin akademiyalar, oliy ta'lim dargohlari, teatrlar, ijtimoiy hayotdagi jamoaviy axillikka qaratilgan turli xil ittifoqlari o'z faoliyatlarini boshladilar. Hamid Olimjon ham vatanga muhabbati va o'zining lirik o'tkir salohiyatli ijod namunalari, novatorligi, tashabbuskorligi bilan tez el nazariga tusha boshladi. 30-yillar va Ikkinchi jahon urushi davridagi O'zbekiston madaniy hayotida adib, o'z hissasini qo'shmagan biror soha yo'qdir. Shuning uchun ham Respublikamizning o'sha davr madaniyati va san'atining ko'pgina yutuqlari Hamid Olimjon nomi bilan bog'liq.

Ma'lumki Hamid Olimjonni adabiyot, she'riyat ijodida xalqimiz juda yaxshi tanishadi. Uning yoqimli lirik, hayotiy, tabiy insoniy hususiyatlarga yo'g'rilgan she'rlarini yettidan, yetmishgacha hamma miriqib yod oladi.

Vatanga muhabbat, estetik did, doimiy yoshlik, ishq-muxabbat, madaniy va ommaviy manaviyat va baxt kuychisi bo'lganligi sababli uning xotirasi doimiy yodimizda, dilimizda yashaydi.

Vodiyarlarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi menda...
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.
Odamlardan tinglab hikoya
O'sar edi shoirda g'oya.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo,
O'xshashini topmasdim, aslo.

Ammo adibning yaratgan ijod maxsullari nafaqat she'r yoki badiiy asar, doston sifatida, balki musiqa san'atida ham keng qadrlanadi. Hamid Olimjonning she'rlariga bastalangan romanslar, qo'shiqlar, dostonlari asosida musiqali drammalar xatto shaxsiy xayotiy syujeti asosida opera va yana bir qancha musiqiy janrlarda hali-hamon yorqin ijod na'munalarini kuzatmoqdamiz.

O'zbek bastakorlari va kompozitorlari o'zlarining musiqalarida XX asrning 30-yillarning oxiridan 90-yillariga qadar yaratilgan asarlarida Hamid Olimjonning she'riyati va dostonlaridan keng foydalanganlar. Misollar: Yunus Rajabiy "Qiz qo'shigi", "Kelgil", "Aylanaman" (qo'shiq janri), "Xush kelding", "Mustazod", "Naylagaymana", "Kuygay", "Muxanna" (ashula janri); Mamadali Niyozov "hol bulsam" (ashula janri); Mutal Burxanov "Samolyot" (qo'shiq), Dilorom Saydaminova "O'zbekiston" (qo'shiq) Manas Leviyev "O'rik gullaganda" va "Yoshlik cho'g'imda" (qo'shiq) "Blonotdan barg" (1963) kinofilmidan.

Romans janri: Sobir Boboyev "Do'stinga", Ikram Akbarov "Hayolimda bo'lding uzun kun", "Eng gullagan yoshlik chog'imda", Xabibulla Rahimov "So'g'inganda", Rustam Abdullayev "Rozimisan".

Drama spektakllari uchun musiqa: Mutal Burhonov "Oygu va Baxtiyor" O'zbekiston davlat qo'g'irchoq teatri spektakli uchun musiqa; Hayri Izamov "Oygu va Baxtiyor" - Respublika yosh tomoshabinlar teatri spektakli uchun musiqa; Fattoh Nazarov "Oygu va Baxtiyor" - musiqa radio shou uchun, shuningdek, respublika yosh tomoshabinlar teatri uchun.

Vokal-simfonik musiqa: Ikram Akbarov "Mening shahrim" kantata (H. Olimjon va G'. G'ulomning she'riy matni) solist, xor va simfonik orkestr uchun (1983); Ikram Akbarov "Mangu xotira" (urush yillari she'riyatidan) oratoriya (H. Olimjon she'rlari, T. To'la, X. G'ulom) solist, xor va simfonik orkestr uchun (1985); Mustafo Bafoyev "Roksananing ko'z Yoshi" - o'quvchi va solist, ayol xori uchun oratoriya, fortepiano, zarba va torlili asboblari (1987); Bahrullo Lutfullayev "O'zbekiston" (she'rlar H. Olimjon va S. Hakim) o'quvchi va solist, aralash xor va simfonik uchun 3-simfoniya orkestr (1988); Bahrullo Lutfullayev "O'lka" (Kray, H. Olimjon so'zlari) she'r, aralash xor va simfonik orkestr uchun (1989).

Simfonik musiqa: Viktor Uspenskiy "Muqanna" - simfonik orkestr uchun to'plam (1944) Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi asosida; Mirsodiq

Tojiyev 2-simfoniya (simfoniya-balet) H. Olimjonning "Oygul va Baxtiyer" poemasi bo'yicha (1970). Teatr musiqasi (musiqqa-sahna janrlari): musiqiy drama – "O'zbekiston qilichi" H. Olimjon, K. Yashen, Uyg'un, S. Abdulla va N. Pogodin librettolari; T. Sadikov, M. Burxanov, T. Jalilov, N. Hasanov, B. Klumov va M. Vaynberg musiqalari (Toshkent), 1942); Manas Leviev "Semurg'" (H. Olimjonning she'riy-ertagi, Toshkent, 1949); Yunus Rajabi, Georgiy Mushel "Muqanna" (H. Olimjon dramasi), Yangiyul, 1943 yil.

Balet – Boris Brovtsin "Semurg" (she'r H. Olimjon ertagi, libretto E. Baranovskiy) Toshkent, Samarqand, 1967.

Opera – T. Sodiqov, B.Zeydman, D. Zakirov, Y. Rajabiy. (H. Olimjonning shu nomli she'riy dostoni asosida "Zaynab va Omon" (Zulfiya librettosi). Toshkent, 1958 yil.¹

Ushbu og'ir tosh bosa oladigan, bir shoirning ijodiy ishlariga bag'ishlangan asarlar ro'yxati, faqat va faqat adibning xalqchil, o'z ishining ustasi ekanligidan dalolatdir.

Hamid Olimjon san'at turlari ichida musiqani alohida ardoqlagan va juda jo'shqinlik bilan musiqaga qiziqgan. Musiqaga bo'lgan muhabbat va katta qiziqish shoirning bolalik davrlarida onasi tomonidan aytilgan xalq qo'shiqlari, folklyor va termalar muxim omil bo'lib xizmat qilgan. Yoshligidan milliy musiqamizga chuqur muhabbati uyg'ongan shoirning ijodiy faoliyati davomida, go'zal san'atkorlik xsusiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Musiqqa san'atiga bo'lgan shoirning qiziqishini Hamid Olimjonning zamondoshi, shoir va tarjimon Nasrullo Ohundiyning quyidagi xotiralari keltirilgan: "Hamid qo'shiqni shunday kuylar ediki, katta-katta ko'zlari chaqnab, yonoqlari yanada qirmizi tusga kirar edi. Biz uning tabiatan go'zal chehrasigagina emas, go'zal qalbining, mayin va dilrabo qo'shig'ining ham asiri bo'lib qolardik. Hamidning bunday ashulariga cholg'u asbobining keragi yo'q edi. Uning o'zi qo'shiqni shunday kuylar ediki, ashulaning kuyiga va seliga, ohanglarning avjiga maftun bo'lib o'tirar edik"

"Bunday fikrlar ulkan adabiy iste'dod sohibi bo'lgan Hamid Olimjonning musiqiy qobilyatidan ham dalolat berib, undagi xalq musiqiy merosiga bo'lgan intilish va muttasil qiziqishni ko'rsatadi. Xalq musiqiy merosi bilan bir qatorda Hamid Olimjon O'rta Osiyo xalqlari musiqqa madaniyatiga kirib kelgan simfonik musiqaga, opera janriga yuksak baho bergan. Shoir milliy operalarning yaratilishini o'zbek musiqqa madaniyatining rivojlanish yo'lida erishilgan katta yutuqlardan biri, deb hisoblaydi. Shoirning yorqin nutqlarini va publitsistik maqolalarini o'qir ekanmiz, muallif o'zbek musiqqa san'ati uchun yangi bo'lgan bunday musiqiy janrlarning xalqqa tezroq yetib borishini istaganligini ko'rishimiz mumkin" – deydi Behzodbek Tursunboyev o'z izlanishida.

¹ Bu haqida qarang: "ХАМИД ОЛИМЖОН МЕРОСИ" Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами 12 декабрь 2020 йил 24 бет.

Darxaqiqat adabiyot va san'at chambarchas bir-biriga bog'liq soxalar hisoblanadi. Biri insonning ko'nliga oro bo'lsa ikkinchisi ruxiga ozuqa sifatida asrlar davomida inson kamolotiga o'zining xissalarini qo'shib kelmoqda. Shuning uchun shoirlar yoki adiblar bevosita musiqa san'ati ixlosmandlari, yoki-da o'zlari musiqa kuychisi sifatida faoliyatlarini olib boradilar. Nima bo'lgandaxam ikki soha vakillari ko'ngil kishilari, insoniyat ruhining tabiblari desak adashmagan bo'lamiz. Adabiyot va san'at doim biri- birining ravnaqiga xizmat qiladi. Hamid Olimjonning ijodiy faoliyati ham nafaqat adabiyotda, balki musiqa, yetakchilik, tashabbuskorlik, jurnalistika soxalarida ham o'zining o'tkir qirrali, intellektualligi bilan muxim axamiyat kasb etadi va doimiy, davomiy izlanishlarga ro'baro kelaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "ҲАМИД ОЛИМЖОН МЕРОСИ" Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами 12 декабрь 2020 йил
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/hamid-olimjon.html>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamid_Olimjon
4. <http://press.natlib.uz/ru/editions/76347>